

EXPRESSION OF PHRASEOLOGICAL UNITS IN MODERN ENGLISH AND UZBEKI LANGUAGES

Sultankulova Gulzodakhan is the daughter of Avazjon

Uzbekistan State University of World Languages

Master's student in Linguistics (English).

Abstract: This article discusses the phraseological unit, its composition and classification into classes.

Key words: phraseological units, theory, nominative phraseology, figurative meaning, word combination

ВЫРАЖЕНИЕ ФРАЗЕОЛОГИЧЕСКИХ ЕДИНИЦ В СОВРЕМЕННОМ АНГЛИЙСКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ

Султанкулова Гулзодахан— дочь Авазжона.

Узбекский государственный университет мировых языков

Магистр лингвистики (английский язык).

Аннотация: В данной статье рассматривается фразеологизм, его состав и классификация по классам.

Ключевые слова: фразеологизмы, теория, номинативная фразеология, переносное значение, словосочетание.

HOZIRGI ZAMON INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNING IFODALANISHI

Sultonqulova Gulzodaxon Avazjon qizi

O'zbekiston Davlat Jahon tillari Universiteti

Lingvistika (ingliz tili) yo'nalishi magistranti

Annotatsiya: Mazkur maqolada frazeologik birlik, uning tarkibi va sinflarga ajratilishi tog'risida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: frazeologik birliklar, nazariya, .nominativ frazeologizmlar, ko'chma ma'no, so'z birikmasi

Frazeologiya – til sistemasining ajralmas qismidir. Frazeologiyaning tilshunoslikda alohida o'rin egallashiga V. V. Vinogradov, V.L. Arxangelskiy, N.N. Amosova, I.I Chernishevalarning hissaları kattadir. Chunki ular frazeologiyaning asosiy tushunchasi va kelajakda o'rganilish yo'llarini belgilab berishgan.

Frazeologiya nazariyasining asoschisi sifatida shveysariyalik olim Sh.Balli (1865-1947) hisoblanadi. Balli birinchilardan bo'lib, o'zining "Fransuz stilistikasi" va "Stilistika maqolalari" o'quv qo'llanmalarida so'zlarning mosliklarini o'rganib chiqqan. U stilistika kitoblarida frazeologiya haqida bob kiritgan. U o'zining birinchi kitobida so'z birikmalarining 4ta guruhini ajratib ko'rsatgan: 1) mustaqil so'z birikmalari, ya'ni turg'unlikka ega bo'lmagan so'z birikmalari, 2) oddiy birikmalar, ya'ni ba'zi o'zgarishlarni qabul qiladigan birikmalar, 3) frazeologik qatorlar, ya'ni frazeologik birliklardagi so'zlar umumiy bitta tushunchani anglatadi, 4) frazeologik birliklar, ya'ni so'zlar o'zining ma'nosini umuman yo'qotib, bitta yakka tushunchaga ega birliklar. Shunday qilib, Balli birikmalarni turg'unlikka nisbatan quyidagicha taqsimlaydi: komponentlar o'rtasidagi mustaqil bog'liqlik, va mustaqillikka ega bo'lmagan birikmalar. Balli bu guruhlarini sxematik tarzda tasvirlagan, lekin ochib ko'rsatmagan.

50-yillarning boshlarida ingliz frazeologizmlarining semantik klassifikatsiyasi paydo bo'ldi.(V.V.Vinogradovning rus tili frazeologik birliklarining klassifikatsiyasi asosida tuzildi). Bu klassifikatsiya hamma frazeologizmlarni semantika jihatidan uch bo'ladi:

1.Frazeologik qo'shilmalar yoki iboralar- umuman bo'linmaydigan birikmalar va ularning ma'nolari komponent ma'nolari va leksik tuzilishiga taaluqli emas. Ularning ma'nosi va komponentlar ma'nosi o'rtasida hech qanday bog'liqlik yo'q . Masalan "Latin is a dead language "

Frazeologik qo'shilmalar orasida quyidagilar farqlanadi:

- a) asosida nekrotizm bo'lgan frazeologik qo'shilmalar;
- b) asosida grammatik arxaizmlar mavjud bo'lgan frazeologik qo'shilmalar;
- c) ham leksik, ham semantik jihatdan bo'linmaydigan frazeologik qo'shilmalar;
- d) komponentlarning leksik ma'nosiga umuman ta'sir qilmaydigan yaxlit semantik birlikli frazeologik qo'shilmalar.

2. Frazeologik birliklar, ular birikmalarning vaqtincha joy almashishi yoki semantik jihatdan ma'no almashishi oqibatida paydo bo'ladi. Ular o'zidan ajratilmaydigan semantik yaxlitlikni tashkil qiladi. Bu guruh ma'noning bo'rttirib ko'rsatilishi bilan xarakterlanadi.

Make an elephant of a fly- Pashshadan fil yasamoq.

3. Frazeologik birikmalar- bularning komponentlari qaysidir ma'noda bir-biri bilan teng huquqlidir.Hattoki shu birikma tarkibidagi biror bir mustaqil bo'lmagan komponentlarning ham sinonimi bo'lishi mumkin .Frazeologik birikmalar uchun shu asos so'z bilan bog'liq bo'lgan sinonimik, parallel konstruksiyalarning borligi xarakterlidir. Masalan, a blind love-yomon ko'rmoq, ko'r-ko'rona sevmog. Bu yerda semantikaning tahliliyligi xarakterlidir.

Make an elephant of a fly- Pashshadan fil yasamoq.

3. Frazeologik birikmalar- bularning komponentlari qaysidir ma'noda bir-biri bilan teng huquqlidir. Hattoki shu birikma tarkibidagi biror bir mustaqil bo'lmagan komponentlarning ham sinonimi bo'lishi mumkin. Frazeologik birikmalar uchun shu asos so'z bilan bog'liq bo'lgan sinonimik, parallel konstruksiyalarning borligi xarakterlidir. Masalan, a blind love-yomon ko'rmoq, ko'r-ko'rona sevmok. Bu yerda semantikaning tahliliyligi xarakterlidir.

Keyinchalik 60-yillarda semantik klassifikatsiya o'rnini funksional klassifikatsiya egallaydi. Ular ikkita katta guruhga bo'linadi:

1. Nominativ frazeologizmlar (faqatgina nominativ funksiyani bajaradi);
2. Nominativ –ekspressiv frazeologizmlar (nominativ –ekspressiv funksiyani bajaradi).

Birinchi guruh, birinchidan, atoqli leksik ma'noli komponentlar asosidagi semantik butunlikka ega nominantli mukammal birikmalarni o'z ichiga oladi. Ikkinchidan, tarkibidagi biror bir komponentning ko'chirma ma'no asosida yasaladi. Uchinchidan, mukammal fe'lli birikmalar.

Ikkinchi guruh esa o'z ichiga birikmali va butun bir gap strukturali semantik hosil bo'lgan frazeologizmlarni oladi.

I.I. Chernishevaning quyidagi kriteriyalar asosida ishlagan kompleksi frazeologizmlarning yangi struktural semantik klassifikatsiyasini keltirib chiqaradi.

1. Grammatik struktura:

- a). so'z birikmasi; b) predikativ birikma va so'z.

2. Yasalish turlari:

- a) komponentlarning yagona yo'l bilan birikishi;
- b) namuna asosida yasalishi;

s) bir necha yo‘l orqali yasaliş .

3. Mukammal birikmalar asosidagi semantik siljishning borligi yoki yo‘qligi natijasida ma’noning paydo bo‘lishi:

a) komponentlarning semantik yasaliş natijasidagi ma’no;

b) atoqli leksik ma’no komponentlari asosidagi ma’no;

c) tip strukturasiidagi ma’no.

Leksik –sintaktik klassifikatsiyada frazeologizmlarning quyidagi turlari mavjud:

a) verbal frazeologizmlar. Funktsional jihatdan fe’llar bilan bog‘liq, ya’ni asosiy qismini fe’l komponentlari tashkil etgan frazeobirliklar bu guruhga taaluqli bo‘ladi . Verbal frazeologizmlar har xil gap bo‘laklari funksiyalarini, yani kesim , ega va hol funksiyalarini bajaradi . Verbal frazeologizmlar tarkibiga idiomalar va frazeologik birliklar kiradi .

b) Adverbial frazeologizmlar . Funktsional jihatdan ravish bilan bog‘liq frazeologik birliklar adverbial frazeologik birliklar guruhiga taaluqli bo‘ladi . Masalan , “ in a full mouth “- “og‘zini to‘ldirib”.

Adverbial frazeologizmlarning umumiy hajmdagi qismi katta ma’noga ega emas.

s) Substantiv frazeologizmlar. Funktsional jihatdan ot bilan bog‘liq frazeologizmlar substantiv frazeologizmlar guruhiga taaluqlidir, ya’ni ularning asosiy komponenti ot hisoblanadi. Substantiv frazeologizmlarga idiomalar (iboralar) va boshqa turdagi frazeologik birliklar kiradi .

d) Pronominal frazeologizmlar . Xuddi olmoshga o‘xshab ular ham yaxlit noaniqlikni bildiradi. Masalan, this and that- ham bu, ham u;

ye) Bog‘lovchili xarakterga ega bo‘lgan frazeologizmlar : here it is – ana xolos.

f) Gaplar bilan bog‘lik frazeologizmlar. Bu guruhga maqollar kiradi .Masalan , Men may meet , but mountains never – Tog‘ – tog‘ bilan uchrashmaydi, odam – odam bilan uchrashadi.

Grammatik struktura jihatidan frazeobirliklar birikmalar, predikativ birikmalar va gap hollarida bo‘ladi .Ma’no jihatidan ko‘rib chiqilganda , frazeologizmlarning struktural –semantik klassifikatsiyasi kelib chiqadi .Ular uchta guruhga bo‘linadi:

1. frazeologik birliklar; 2. frazeologik birikmalar; 3. frazeologik tushunchalar;

1. Frazeologik birliklar. Frazeologiyaning asosiy bo‘limlaridan biridir. Ularning asosida semantik transformatsiya yotadi. Komponentlar guruhining ma’nosi o‘zgarganda, frazeologik ma’no paydo bo‘ladi. Bu guruhga bir –biri bilan ergashish yo‘li orqali bog‘langan birikmalar kiradi. Frazeobirliklar guruhiga, M. D. Stepanova va I. I.Chernishevaning aytishicha, so‘z juftliklari va komparativ frazeologizmlar kiradi. Ular bularni struktural xususiyatga ega frazeobirliklar deb atashadi.

So‘z juftliklarining asosiy struktural belgisi bu ularning binar xususiyatga ega birikma bo‘lishidir, ya’ni ular ikkita bir gap bo‘laklariga taalluqli bo‘lgan leksemalardan iborat. Semantika nuqtai nazaridan olib qaralganda , so‘z juftliklar umumlashgan xarakterga ega.

2. Frazeologik birikmalar –Komponentlarning ma’no jihatidan o‘zgarib, bitta yagona ma’no beruvchi frazeologik birliklardir. Bunday frazeologik birliklarning semantikasi uchun tahliliy qarash va komponentlarning alohida semantik o‘rganilishini saqlash joizdir. Masalan “an iron lady”-“temir ayol” .

Frazeologik birikmalar terminologik va noterminologik xarakterga ega. Masalan “The black market “- “ chayqovchilar bozori “

3. Frazeologik tushunchalar – bunday birliklar o‘z grammatik tuzilishi jihatidan gap yoki predikativ birliklar bo‘lishi mumkin .Kommunikativ ma’no jihatidan ularning quyidagi xillari mavjud :

a) ko‘p ishlatiladigan maqollar: In Rome as the Romans do- Ko‘rlar shahriga borsang, bir ko‘zingni qisib yur.

b) Mukammal va hosil qilingan modal tushunchalar , masalan “ Damn it up.”-“ Ha, qurib ketsin !”

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, frazeologik birliklar nafaqat ingliz tilida, balki boshqa tillarda ham keng qo‘llaniladi. Frazeologik birliklar ingliz tilida quyidagi asos bo‘yicha tahlil qilinadi:

1. Frazeologik birliklarning soniga nisbatan boshqa tillar bilan qiyoslanishi;
2. Aspektual va funksional moslikka nisbatan taqqoslash;
3. Stilistik bo‘yoqqa egaligi nuqtai nazaridan.

Bu nuqtai nazar orqali o‘rganilgan frazeologik birliklarda hamma stilistik qatlamlarga mos frazeologik birliklar mavjudligi ham o‘rganildi.

Bundan tashqari biz tahlil qilgan frazeologik birliklarning asosiy qismi inson xarakteri, uning ichki va tashqi dunyosini ochib tahlil qiluvchi frazeosemantik guruhga mansub frazeologik birliklardir. Ularda emotsional-ekspressiv bo‘yoq, ishlatilishning stilistik xususiyatlari mavjud bo‘lib, ular tilning madaniy xususiyatlarini ochib beradi va bu birliklarda milliy bo‘yoq, o‘rganilayotgan tilning yorqinligi va his-hayajoni aniq va ravon aks ettirilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Arnold I. V. Leksikologiya sovremennogo angliyskogo yazyka. – M.: Izd-vo literatury na inostrannykh yazykakh, 1959. – 352s.
2. Valgina N.S., Rozental D.E., Fomina M.I. Sovremennyy russkiy yazyk, pod red. N.S. Valginoy, - M.: Uchebnik dlya vuzov, izd. 6-e, dop. i pererab. Logos, 2006. -S. 317-319
3. Bushuy A. M. Sущnost yazyka kak problema obshchey lingvistiki. Teksty leksiy. – Samarkand: SamGIIYa, 2004, - 90s.
4. Bushuy A. M. Yazyk i deystvitel'nost. – Tashkent. Fan, 2005. – 150 s.
5. Vakurov V.N. Frazheologicheskiy kalambur v sovremennoy publitsistike. // Russkaya rech, 1994, №6. -340 s.
6. www.referat.uz